

AYRIM DAVLAT FUNKSIYALARINI JAMOATCHILIK NAZORATI SUBYEKTLARIGA O'TKAZISH YO'LI BILAN TARTIBGA SOLISH

Xoliqberdiyeva Mashhura Abduqahhor qizi

Termiz Davlat Universiteti,
Yuridik fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20157846>

Annotatsiya. *Ayrim davlat funksiyalarini jamoatchilik nazorati subyektlariga o'tkazish yo'li bilan tartibga solish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda, shu bois O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, unda fuqarolarning faolligini oshirish, ularga shart-sharoitlar yaratish davlatni fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda samarali boshqarish maqsadida "Mening fikrim" veb-portali tashkil etilgan. Zero ushbu portal jamoatchilik fikrini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi va yuqoridagi dolzarb masalaning yechimlaridan biri bo'lib hisoblanadi, shu bois bu portal faoliyatini yanada takomillashtirishni davrning o'zi taqazo etadi.*

Kalit sozlar: *Davlat, ijro hokimiyati, fuqarolik jamiyati, davlat organlari, qonun, vebportal, jamoatchilik nazorati, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik fikrini o'rganish, jamoaviy murojaatlar.*

REGULATION THROUGH THE TRANSFER OF CERTAIN STATE FUNCTIONS TO SUBJECTS OF PUBLIC OVERSIGHT.

Abstract. *Regulation through the transfer of certain state functions to subjects of public oversight is currently one of the pressing issues. Therefore, in Uzbekistan, in order to strengthen public oversight, increase citizens' participation, and create favorable conditions for them, the "Mening Fikrim" web portal was established with the aim of ensuring effective governance while taking into account the opinions of citizens. This portal plays an important role in studying public opinion and serves as one of the solutions to the above-mentioned urgent issue. Hence, further improvement of the portal's activities is required by the demands of the time.*

Keywords: *State, executive authority, civil society, state bodies, law, web portal, public oversight, public hearing, study of public opinion, collective appeals.*

РЕГУЛИРОВАНИЕ ПУТЕМ ПЕРЕДАЧИ ОТДЕЛЬНЫХ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФУНКЦИЙ СУБЪЕКТАМ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ.

Аннотация. *Регулирование путем передачи отдельных государственных функций субъектам общественного контроля в настоящее время является одной из актуальных проблем. В связи с этим в Узбекистане в целях усиления общественного контроля, повышения активности граждан и создания для них необходимых условий был создан веб-портал «Mening fikrim», направленный на обеспечение эффективного государственного управления с учетом мнения граждан. Данный портал играет важную роль в изучении общественного мнения и является одним из решений вышеуказанной актуальной проблемы.*

Поэтому дальнейшее совершенствование деятельности данного портала является требованием времени.

Ключевые слова: *государство, исполнительная власть, гражданское общество, государственные органы, закон, веб-портал, общественный контроль, общественные слушания, изучение общественного мнения, коллективные обращения.*

«Taraqqiyot strategiyasi» markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakovning ta'kidlashicha, jamoatchilik nazoratida xulosani jarayonga emas, balki natijaga qarab chiqarishimiz zarur.

Aks holda, jamoatchilik nazorati ijro hokimiyati idoralarini harakatsizlik holatiga tushirib qo'yishi mumkin, jamoatchilik nazoratida jarayonga qaraganda natijani asosiy mezon sifatida e'tiborga olinishi lozim. Shundan kelib chiqib, «davlat hokimiyati» va «jamoatchilik nazorati» bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir degan, xulosaga kelamiz. Davlat hokimiyati va jamoatchilik nazoratining birligi hokimiyatni xalqdan, xalqni hokimiyatdan uzoqlashuvining oldini olib, ozchilik va ko'pchilik despotizmiga yo'l qo'ymaydi, davlat hokimiyati va jamoatchilik nazoratining uyg'unligini ta'minlash demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi degan fikrlarni aytgan¹.

Konstitutsiyamizning 36-moddasiga binoan, yurtimiz fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshirishni o'z ichiga oladi². Davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish 2018-yil 12- aprelda qabul qilingan 473-sonli O'zbekiston Respublikasining Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solingan.

Davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlari va nodavlat tashkilotlari faoliyati ustidan fuqarolar, fuqarolar birlashmalari va o'zini-o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa birlashmalari tomonidan qonun normalariga asosan olib boriladigan nazorat jamoatchilik nazorati hisoblanib, Respublika fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat tomonidan ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari jamoatchilik nazoratining subyektlaridandir. Davlat organlari va mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan qarorlarda, normativhuquqiy hujjatlarda, shuningdek rivojlanishning davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini inobatga olish jamoatchilik nazoratining eng muhim obyekti hisoblanib, shunga asosan fuqarolarning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Mening fikrim" veb-portali tashkil etilgan.

Jamoatchilik nazoratining shakllari ichida jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi va jamoatchilik fikrini o'rganish muhim ahamiyatga ega³

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida har kim bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda yo'llagan Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida qonunlar muhokamasiga keng xalq ommasini bevosita jalb qilish, buning uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, shu bilan birga, Internet tarmog'ida maxsus maydonlar yaratish zarurligi ta'kidlangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 22-yanvarda PF-5308-son Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 34-bandida Mening fikrim maxsus portali orqali Oliy Majlisi palatalari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga elektron jamoaviy murojaat

¹ <http://strategy.uz/index.php?news=1081&=uz>

² <http://O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 01.05.2023>

³ [http://O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni, 12.04.2018 yildagi O'RQ-474-son](http://O'zbekiston Respublikasining)

qilish tartibini joriy etish belgilangan. Mening fikrim veb-portali yurtimizda aholining jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi, qabul qilinayotgan qonunlarning hayotiy va samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida yaratilgan⁴.

Ma'lumot uchun Mening fikrim veb-portalida murojaatlarni yo'llash yoki ularga ovoz berish 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi internetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi va www.id.egov.uz veb saytida ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari kerak.

Mening fikrim veb-portaliga yuborilgan murojaatlarni ko'rib chiqishda fuqarolar tomonidan berilgan **ovozlar** muhim ahamiyatga ega bo'lib, fuqarolarning kamida 10 000 ta ovozini to'plagan murojaatlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan, kamida 5000 ta ovozni to'plaganlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan, kamida 1 000 ta ovozni to'plagan murojaatlar esa Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Mening fikrim veb-portalining faoliyati qanchalik samarali bo'lmoqda degan savolga to'xtaladigan bo'lsak, hozirgi kunda yurtimizda ushbu portal jamoatchilik nazorati subyektlaridan biri bo'lmish aholining davlat organlariga murojaatlarida hamda davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlashda eng samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu fikrimizning amaliy isbotini quyidagi jamoaviy murojaat misolida ko'rishimiz mumkin:

Автотранспорт воситасидан фойдаланишда яқин қариндошлар учун ишончнома олиш тизимини бекор қилиш

Йўналиш: Қўрилган Сана: 2018-10-14 05:42:34

Муаллиф: KENAYEV AMBEBEK ALIJON O'G'LI

Жамоавий murojaat matni

Машинаси бор одамлар яқин билади. Бизда шундай тартиб белгилангани, оила аъзолари, яқин қариндошлар, бир-бирини машинадан маъсум ишончномаси фойдалани олмайд. Садарок айтса, битта уйда, ховида яшасанг ҳам мен отамнинг, отам меннинг номинга расмийлаштирилган автотранспортдан фойдаланишда учун аниқ ва пул сарфлаб ишончнома олишимиз шарт. Ака-укалар, она-сизилар билан ҳам худди шундай ахвол. Бу ҳам оилавий бюджетга зарар, ҳам кулжаб тайёрлаш учун кўп ахст сарфлайсиз. Бетона одамларга ишончнома бериши туғрилиги мунокарлар, яқин ола она боласи, ака-ука, она-сизилар бир-бирига ишончнома бериши, олимни айтсанг кадрларнингга ҳам, менталитетингга ҳам тўғри келмайд.

1990-йилларда машина ўйғурлаш билан бонксик воқеалар кўп эди. Балки йил пайта бу тизим ўлимга оқлагандир. Лекин оқларидай қирғончи инновацияни жиддий равиолашиб бораётган. "Хавфсиз одамлар" тизими ишга туширилган йўналишида индустриалар ишлаб турган пайтада бунақа ишончнома бериши тартибига зарурат борамики?

Жамоавий murojaat / ovoz ni amalga oshirish

Автотранспорт воситаларидан фойдаланишда қили қариндошларнинг бир-бирига ишончнома бериши тартибини бекор қилиш керак. Бу орқили қонунбозликнинг оқдини олади, оилавий бюджетга ҳам ардан бўлади. Ҳам орқили овозларчиликларнинг оқди олинмади.

14433

Барча ёқлаб берилган овозлар сони

Тупланиши лозим бўлган овозлар сони: 10000

14433

0

Кўриб чиқилган


Жамоавий murojaatни улашиш

Yuqoridagi «Mening fikrim» veb-portali orqali «Avtotransport vositasidan foydalanishda yaqin qarindoshlar uchun ishonchnoma olish tizimini bekor qilish haqida»gi elektron jamoaviy murojaatni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha 2019-yil 1-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan Avtotransport vositasidan foydalanishda yaqin qarindoshlar uchun ishonchnoma olish tizimini bekor qilish haqidagi qaror qabul qilinib, unga binoan qarorning ijrosini nazorat qilish Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisining o'rinbosari A.Rahmonovga yuklatilgan. Keyinchalik ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yilda O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan va unga ko'ra yaqin qarindoshlar o'rtasida avtotransport vositasini ishonchnomasiz boshqarganlik uchun ma'muriy javobgarlik bekor qilindi va yaqin

⁴ <https://meningfikrim.uz/uz/pages/about>

qarindoshlarning aniq ro'yxati belgilab qo'yildi, ya'ni ota-ona, tug'ishgan yoki tutungan aka-uka va opa-singillar, er-xotinlar, farzandlar, shu jumladan asrab olinganlarni belgilash masalalari ham kiritildi va ushbu jamoaviy murojaat o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy hal qilindi.

Biroq ta'kidlash lozim, "Mening fikrim" veb-portali qanchalik samarali bo'lmasin, portalda yetarli ovoz to'plagan, ammo ijobiy hal qilinmagan hamda natijasi jamoatchilikka mavhum bo'lgan murojaatlar ham talaygina. Ushbu fikrimizning isbotini yana bir amaliy misol bilan keltirsak:



Xususan, ushbu murojaat vakolatli davlat organi tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, ammo bugungi kunga qadar uning ijrosi amalga oshirilmagan. Xo'sh, o'n mingdan ortiq fuqarolarimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala yuzasidan kiritilgan taklif nahot inobatga olinmasa?

Yuqoridagi jamoaviy murojaat yuzasidan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Navoiy viloyati hokimligi hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti vakillari tomonidan joyiga chiqib o'rganilgan. O'tkazgan tahlillari natijasi Navoiyda AKT yo'nalishidagi kadrlar yetishmasligi sezilardi darajada ekanligi ma'lum bo'lgan.

Shunga asosan "Mening fikrim" veb-portaliga yuborilgan "Navoiy shahrida Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Navoiy filialini ochish to'g'risida"gi murojaatga 2019-yil 18-iyunda Navoiy viloyatida sanoat, injiniring, texnologiyalar va IT dasturlashning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan xorijiy oliy o'quv yurti filialini tashkil qilish orqali viloyatda AKT yo'nalishida kadrlar tayyorlashni ta'minlash maqsadga muvofiq ekanligi haqida vakolatli organ tomonidan xulosa berildi.

Balki bu xulosa aholi uchun yanada asoslidir ammo, o'n mingdan ortiq fuqarolarimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala yuzasidan yuborilgan murojaat qanoatlantirilmaganligi fuqarolarning ishonchini kamayishiga olib kelishi mumkinligi haqida fikr yuritish zarurmasmidi? Ushbu murojaatning natijasi "Mening fikrim" veb-portali faoliyatining salbiy jihatini ko'rsatib berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, ushbu portalga yuborilgan murojaatlar aholi tomonidan samarali bo'lishiga ishonib ishonch bilan ovoz berilganidan so'ng vakolatli organ tomonidan murojaat hat tomonlama puhta o'rganib chiqilishi, qaror qabul qilinishi

hamda qabul qilingan qaror ijrosi qat'iy nazorat qilinishi va uning ijrosining amaliy isboti aks etgan suratlar portalga joylashtirilishi aholining davlat siyosatiga nisbatan ishonchini yanada oshirib ularning jamoatchilik nazoratini ta'minlash borasidagi faolligini kuchaytirishga turtki bo'lardi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib chet davlatlarida aholi tomonidan jamoaviy murojaatlar yo'llanadigan ancha samaraliroq portallar mavjudmi degan savol tug'ilishi tabiiy, ushbu savolga javob sifatida Yevropa Ittifoqini shakllantirishga yordam berishning o'ziga xos usuli bo'lib xizmat qilayotgan Yevropa fuqarolari tashabbusi (ECI) portalining faoliyatini keltirsak bo'ladi.

ECI portali Yevropa Ittifoqi darajasida fuqarolar boshchiligidagi jamoaviy tashabbuslarni boshlash va qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan asosiy platformadir.

ECI portali Yevropa Ittifoqi fuqarolari uchun turli muammolarni hal qiluvchi hamda Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga o'zgartirishlar taklifini beruvchi tashabbuslarni yaratish, imzolash va qo'llab-quvvatlash uchun zarur vositalarni taqdim etadi. U tashabbus loyahasini qanday ishlab chiqish va taqdim etish bo'yicha yo'riqnomani, shuningdek, talab qilinadigan imzolar va jarayonda ishtirok etadigan tartib-qoidalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aholi e'tiboriga taqdim etadi. Shu jihatlari bilan ushbu portal Mening fikrim veb-portaliga bevosita o'xshash deyishimiz mumkin. Yevropa fuqarolari tashabbusi portali fuqarolarga o'z tashabbuslarini keng jamoatga namoyish etish va ularning sabablarini ko'rish uchun platformani taqdim etadi. Shuningdek portal jarayonining shaffofligi, jumladan, imzolar to'plash va tashabbuslarni taqdim etish bosqichlarida ittifoq fuqarolarining demokratik jarayonga ishonchni yanada mustahkamlashga yordam beradi va davlat organlari hisobdorligini ta'minlaydi. Ushbu portal aynan shu jihatlari bilan boshqa davlatlarning jamoaviy murojaat yo'llash imkonini beruvchi portallaridan

bir qancha avzalliklarga ega desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan hisobdorlik masalasining qat'iy ta'minlanganlik darajasi bilan esa ushbu portal Mening fikrim portalidan farq qilishini ko'rishimiz mumkin⁵.

ECI portalida jarayonlar tashabbusni amaliy jihatdan ko'rib chiqishdan boshlanadi. Bunda tashabbus egasi 7 ta turli Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yashovchi kamida 7 ta Yevropa Ittifoqi fuqarolaridan iborat tashkilotchilar guruhini tashkil qilishi hamda butun Yevropa bo'ylab tashabbusni qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lgan odamlarni topishi kerak.

Ikkinchi qadamda esa tashabbus ro'yxatdan o'tkazilishi zarur, ya'ni tashabbus uchun imzo to'plashni boshlashdan oldin, Komissiyadan uni ro'yxatdan o'tkazish so'raladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, komissiya barcha tashabbuslarni ro'yxatdan o'tkazishga majbur emas. Komissiya faqat ma'lum mezonlarga javob beradigan tashabbuslarni ro'yxatga oladi. Tashabbusni ro'yxatdan o'tkazish so'ralganidan so'ng, uni qabul qilish yoki qilmaslik baholanadi. Bu jarayon 2 oy, uzog'i bilan 4 oyga cho'zilishi mumkin. Agar tashabbus ro'yxatdan o'tkazish uchun qabul qilinmasa, bu haqida e'lon qilinadi.

Uchinchi qadamda ovozlar qog'ozda yoki onlayn yig'iladi. Ovozlar to'plash uchun tashabbus ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kamida 6 oy ichida tashabbuschilar kompaniyasi tayyorlanishi va boshlanish sanasini belgilashi lozim. So'ngra bu haqida komissiya kamida 10 ish kuni oldin xabardor qilinadi va ovoz yig'ish jarayoni 12 oy davom etadi.

⁵https://citizens-initiative.europa.eu/_en

Bunda Yevropa Ittifoqi mamlakati fuqarolari va Yevropa saylovlarida ovoz berish uchun yetarlicha yoshga to'lgan fuqarolar ovoz berishlari mumkin. Ovozlar to'plash jarayoni davomida ma'lumotlarni himoya qilish qoidalariga rioya qilish bu muhim talablardan biri hisoblanadi.

To'rtinchi qadamda agar 12 oylik muddat ichida yetarlicha imzo to'plashga erishilsa, uch oy ichida ular millatiga ko'ra guruhlanib, har bir Yevropa Ittifoqi davlatidagi vakolatli organlarga tekshirish uchun yuboriladi. Vakolatli organlarning tekshirish jarayonlari uch oy davom etadi hamda natijasi bo'yicha sertifikat taqdim etiladi.

Beshinchi qadamda sertifikatni qo'lga kiritilganidan so'ng, uch oy ichida tashabbusni qo'llab-quvvatlash va moliyalash haqidagi ma'lumot bilan birga Komissiyaga taqdim etilishi kerak bo'ladi.

Oltinchi qadamda Tashabbus yuborilganidan so'ng, tekshirish jarayoni boshlanadi. Bundan tashqari, tashabbus egasi bir oy ichida Komissiya vakillari bilan uchrashib, o'z tashabbusida ilgari surilgan masalalarni batafsil tushuntirish imkoni mavjud. Uch oy ichida esa tashabbuschi tashabbusini Yevropa parlamentida bo'lib o'tadigan ochiq eshituvda taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Parlament, shuningdek, to'liq (yalpi) majlisda munozara o'tkazishi, bu esa tashabbusda nazarda tutilgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga olib kelishi mumkin.

Olti oy ichida komissiya tashabbusga javoban qanday choralar ko'rishini va uning choralar ko'rish yoki ko'rmaslik sabablarini aniqlab beradi. Bu javob komissiya a'zolari tomonidan rasmiy ravishda qabul qilingan va Yevropa Ittifoqining barcha rasmiy tillarida nashr etilgan xabar shaklida bo'ladi.

So'nggi qadamda esa, agar komissiya qonunchilikni tashabbusga mos javob deb hisoblasa, u rasmiy taklif tayyorlashni boshlaydi. Buning uchun ommaviy maslahatlashuvlar, ta'sirni baholash va hokozolar kabi tayyorgarlik bosqichlari talab qilinishi mumkin. Komissiya tomonidan qabul qilingandan so'ng, taklif Yevropa Parlamenti va Yevropa Ittifoqi Kengashiga taqdim etiladi. Komissiya qonun loyihasini taklif qilishga majbur emas. Demak shu tariqa ECI portalida tashabbuslar amalga oshiriladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki jamoatchilik nazorasi shaffoflik, hisobdorlik va tezkorlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, davlat sektorini samarali boshqarish davlat va uning fuqarolari o'rtasidagi munosabatlarni oqilona yuritilishi, fuqarolarning e'tirozlari taklif va shikoyatlari o'z o'rnida inobatga olinishini talab qiladi. Hukumat vakillari qachonki xalq oldida o'z hatti harakatlari uchun javobgarlik va masuliyatni his qiladigan bo'lsalar har sohada ilgarilash va sezilarli o'zgarishlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Jamoatchilik nazoratining afzalliklari eng avvalo fuqarolarning huquqiy ongini to'g'ri shakllanishida va ularning jamoaviy manfaatlarini ko'zlab qarorlar chiqarishga harakat qilishda, korrupsion holatlarning ham sezilarli qisqarishida, va avtoritar siyosiy boshqaruv yoki davlat monopoliyasini oldini olishda namayon bo'ladi.

Shuningdek fuqarolar o'zlarining fikrlari naqadar davlat uchun, uning ravnaqi uchun muhim ekanini his qilsalar bunga jiddiyroq qarashga va mamlakat rivoji faqat "yuqoridagilar" hal qilishi kerak bo'lgan masala deb qaramasligiga sabab bo'ladi, bir so'z bilan buni "vatanparvarlik" hissini to'g'ri shakllantirish deyishimiz ham mumkin. Mamlakatimizda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, unda fuqarolarning faolligini oshirish, ularga shart-sharoitlar yaratish davlatni fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda samarali boshqarish maqsadida "Mening fikrim" veb-portali tashkil etildi.

To'g'ri bu portal samarasiz bo'ldi deb ayta olmaymiz ammo mukammal darajada deb ham bo'lmaydi. Bu portalni yanada takomillashtirish uchun muhim jihatlarni inobatga olib, chet el tajribasi bilan qiyoslagan holda qayta tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi degan fikrni ilgari sursak bo'ladi. Shu yo'l orqali aholining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda faolligini hamda tashabbuskorligini oshirishga erishamiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitusiyasi, 01.05.2023
2. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni,
3. 12.04.2018 yildagi O'RQ-474-son
4. <https://advice.uz/oz/document/2356>
5. <https://meningfikrim.uz/uz>
6. https://citizens-initiative.europa.eu/_en
7. <https://www.lex.uz/>